

Universitet o'qituvchi-professori va xodimi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi

*Shu kunlarda yana ikki yutuqqa erishishga muvaffaq bo'ldik!
Shu haqida Sizlar bilan o'rtoqlashmoqchimiz...*

1-oktyabr' – O'qituvchi va Murabbiylar kuniga bag'ishlangan Prezident farmoniga binoan Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi fidoyi sifatida **Tulyaganov Dilshat Ubaydullaevich** – Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining tabiiy va matematika fanlari kafedrasini mudiri «**Mehnat Shuxrati**» ordeni bilan taqdirlandi.

Kuni kecha bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tantanali bayram tadbirida esa **Allamova Gulbahor Azatovna** – Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i ko'p yillik samarali va halol mehnati hamda o'z **hizmat vazifasiga bo'lgan sadoqati uchun faxriy yorlig'i** bilan taqdirlandi.

Ularni ushbu yutuqlari bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz! Martabalari bundanda ulug' bo'lib, fidokorona xizmat bilan charchamasliklarini tilab qolamiz!

Biz Sizlar bilan faxrlanamiz!!!

Gulbahor Azatovnaning quvonchlarini rasmdan, Dilshat Ubaydullaevichning taasurotlarini esa O'zbekiston24 (FM 87.9) radio to'liqinida bergan interv'yularidan bilishingiz mumkin!